



LUTFIY LIRIKASI

Abdurahmonova Mavluda Ibragimovna

Termiz davlat universiteti akademik litseyi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotasiya: Mavlono Lutfiy XIV – XV asrlardagi o‘zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyandasi bo‘lib, o‘zining o‘zbek va fors-tojik tillaridagi asarlari bilan Sharqda katta shuhrat qozongan so‘z san’atkoridir. Mavlono Lutfiyning yoshlik yillaridanoq adabiyotga bo‘lgan katta qiziqishi alohida ko‘zga tashlanib turar edi. Bo‘lajak shoir o‘zigacha bo‘lgan turkiy tildagi adabiyot bilan bir qatorda fors va arab adabiyotlarini ham qunt bilan o‘rganadi. Uning Hofiz, Kamol Xo‘jandiy va Nasimiy meroslariga rag‘bati ayniqsa katta edi. Amir Temur davridan boshlab Xurosan va Movarounnahrda ro‘y bergan siyosiy markazlashuv samarasi o‘laroq shakllangan adabiy muhit Lutfiyni ham o‘z maydoniga tortdi. Uning g‘azallari og‘izga tushib, mushoira kechalarida o‘qiladigan, adabiy suhbatlarning esa mavzuiga aylandi. Ushbu maqolada Lutfiyning hayoti va uning lirikasi haqida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: hayoti va ijodi, shoirlar, lirikadagi xilma-xillik, adabiy suhbatlar, taniqli asarlari

Kirish: Lutfiy (1366 – Hirot – 1465), Mavlono Lutfiy - o‘zbek shoiri, orif va mutafakkir. O‘z zamonining «malik ul-kalomi». Yaqin vaqtlargacha Lutfiyning tavallud topgan va vafot etgan joyi Hirotning Deqikanor mavzei deb ko‘rsatib kelingan. Shayx Ahmad Taroziyning Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlab yozilgan «Funun ul-balog‘a» asari topilgach, undagi «ma’dan ul-latoyif Lutfiyi Shoshiy» jumllalariga asoslanib, Lutfiyning ona vatani Toshkent bo‘lgan, degan fikr ham ilgari surildi.



Haqiqatan qam Lutfiyning she'riyati - xilma-xil shakllardan tarkib topgan mazmundor, rangin she'riyat. Bizgacha shoirning 16—20-asrlar mobaynida ko'chirilgan turkiy devonining 33 qo'lyozma nusxasi yetib kelgan bo'lib, ular Toshkent, Dushanba, Istanbul, Tehron, London, Parij, Sankt-Peterburg kutubxonalari va qo'lyozma fondlarida saqlanadi. Olim E. Ahmadxo'jaevning aniklashi bo'yicha, Lutfiy kalamiga mansub mavjud she'rlarning umumiy miqdori 2774 bayt yoki 5548 misradan ortiq. Ularning katta qismi (2086 bayti) g'azal janrida yozilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Lutfiy g'azalnavis sifatida Sharq adabiyotida barqarorlashgan adabiy-estetik an'analar bilan xalq og'zaki ijodiyoti tajriba tamoyili va usullarini nihoyatda mohirlik bilan muvofiqlashtirgan. Shu boisdan ham uning g'azallarida milliy his-tuygular nurlanib, insoniy dard, armon, qayg'u va shodlik tasviri takrorsiz bir ta'sirchanlik kasb etgan. Lutfiy nainki gazallarida, ruboiy, tuyuq, qit'a, fardga o'xshash boshqa janrlardagi she'rlarida ham nafosat hissi shakllangan, did va saviyasi baland kishilarning — zukko va hayotsevar xalq vakillarining fikru tuyg'ularini tarannum etgan. Shoirning:

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,

Qondur jigarim, xoh inon xoh inonma,

kabi misralarini o'qiganda, ularning bundan bir necha asr muqaddam yozilganiga ba'zan ishonish ham qiyin bo'ladi. Chunki ular shu darajada sodda, og'zaki nutqqa yaqin va kitobiy bezakdorlikdan yiroq va samimiydir.

U devonidagi bosh mavzu ishq va asosiy maqsad oshiqning hasbu holini tasvirlashdan iborat bo'lsada, shoir deyarli har bir she'rida mavzuga yangicha yondashib, betakror ohanglar yaratadi, mohiyatiga mos poetik obrazlar topadi, bir-biriga o'xshamaydigan badiiy san'atlarni qo'llaydi. Lutfiy devonida tashbeh, talmeh, tazod, iyhom, xususan, irsoli masal san'ati namoyon bo'lgan. Lutfiy ruboiy, tuyuq, qit'alarini ham san'at namunasi maqomiga ko'tara olgan. Yaqin-yaqingacha «Gul va Navro'z» dostoni Lutfiy asari deb kelingan edi. Keyingi tadqiqotlar natijasida bu doston muallifi Haydar Xorazmiy ekanligi aniqlandi. Lutfiy — turkiy she'riyatda maktab yaratgan san'atkor. Bu ijod maktabidan Alisher Navoiy va Mirzo Bobur saboq olishgan. Roqim,



Amiriy, Sultonxon to‘ra Ado, Tabibiy singari shoirlarning devonlaridan. Uning g‘azallari ilhomida bitilgan muxammaslar joy olgan. Lutfiy she‘riyatining ta‘siri faqat O‘rta Osiyo bilan chegaralanib qolmasdan, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlariga ham yetib borgan. Atoqli turk olimi M. F. Ko‘prulizodaning e‘tirof etishicha, Lutfiyning she‘rlari yolg‘iz chig‘atoy shoirlari orasida emas, balki «Xarobot» muallifi Ziyo Poshoga qadar bo‘lgan usmonli turk shoirlari orasida ham zavq bilan o‘qilgan.

Devon Sharq she‘riyatining yetakchi janrlaridan bo‘lgan g‘azal, ruboiy, tuyuq, qit‘a va fardlarni o‘z ichiga oladi. U odatdagidek, hamd va na‘d she‘rlari bilan boshlanadi. Devonning deyarli ko‘p nusxalarida Shohrux Mirzo nomiga yozilgan qasidaga ko‘zimiz tushadi. Ayrim nusxalarda esa Temuriy shahzodalar: Boysung‘ur Mirzo, Iskandar Mirzo nomiga bag‘ishlangan qasidalar ham uchraydi.

Mavlono Lutfiy devonidan o‘rin olgan lirik asarlarning yetakchi temasi – ishqdir. Shu ishq insonning zohiriy va botiniy olamini oyna bo‘lib aks ettiradi. Biz bu asarlarda ishqning dunyoviy talqinlarini ham yuksak san‘at bilan aks ettirilganligini kuzatamiz. Navoiy o‘zining “Manoqibi Pahlavon Muhammad” asarida Lutfiyni “zohir ahli shuarosi”, ya‘ni dunyoviy mavzular talqinida mahorat ko‘rsatgan shoir sifatida alohida xarakterlaydi. Shoir lirikasida ancha keng o‘rin tutgan dunyoviy mavzular, ayni paytda, diniy tasavvufiy mavzular bilan uyg‘unlashib, biri-birini to‘ldirib keladi. Shu tarzda ular majoz va haqiqat birligini tashkil qiladi.

Alloh o‘zi yaratgan mavjudot va maxluqotlar orasida insonni eng mo‘tabar pog‘onaga ko‘tardi. Unga o‘z nurini berdi. Inson shuning uchun ham azizdir. U husn bobida ham “mazhari sun‘i ilohdir”. Odam shu kadar buyuk mohiyatki; Allah uning yuzida o‘z aksini ko‘radi. Lutfiyning quyidagi baytida shu mazmunga ishora qiluvchi teran bir fikr o‘zining go‘zal badiiy ifodasini topgan:

Ulki husn etti bahona elni shaydo qilg‘ali,

Ko‘zgudek qildi seni o‘zini shaydo qilg‘ali.



Shoir asarlari uning o'sha davrda keng tarqalgan tasavvuf g'oyalari ta'sirida bo'lganligidan dalolat beradi. Alloh dunyoni mukammal go'zallik timsoli sifatida yaratgan, shu go'zallik og'ushidagi odamning borliqni idrok etish tuyg'usi, muhabbat hislarining ustuvorligi, atrofni o'rab turgan jamoat va nabotot olami bilan aloqasini eng go'zal fazilatlari sifatida kashf etgan. Lekin hayotda hamma narsa muvaqqat, u uzluksiz harakatda. Tabiat fasllari kabi odam umrining fasllari bir-biri bilan almashinib turadi. Shunga ko'ra ham Lutfiyning g'azallari markazida turgan qahramon hayotining Alloh in'om etgan barcha go'zalliklariyu, ne'matlaridan bahramandlik tuyg'usi bilan yashaydi. “Bari aysh birla kechsa kerak ushbu umri foni”, deb xitob qiladi. Shoir lirik qahramonini navbahor kelishi bilan chamanlarning gurkirab ketishi, gul faslining tarovati maftun etadi.

Xulosa Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Navoiy o'zigacha va o'ziga zamondosh bo'lib yashagan turkiygo'y shoirlardan faqat Lutfiy g'azallarigagina muxammas va musaddaslar bog'lagan. Mavlono Lutfiy 1465 yilda o'z manzilgohi bo'lgan Dehikanorda vafot etgan. Hazrat Alisher Navoiyning xabar berishicha, uning qabri ham o'sha yerdadir. Keyingi asrlarda ulug' shoir Lutfiy mahoratining ta'sir doirasi tobora kengayib bordi. Fuzuliyning Lutfiy g'azallariga ko'plab naziralari, qator muxammaslari ma'lum. Mashrab Lutfiyning “xoh inon, xoh inonma” radifli g'azalining matlaidan tazmin yo'li bilan foydalanib, butun boshli yangi bir g'azal yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tanlangan asarlar [2-nashri], T., 1968; Sensan sevarim... T., 1987.
2. Navoiy, Mukammal asarlar tuplami [20 jildli], 17-j., T., 2001; Erkinov S, Lutfiy (hayoti va ijodi), T., 1963; Ahmadxo'jayev E., Turkiy nazmning sehgari, T., 1992.
3. “Ma'naviyat yulduzlari” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999) kitobidan olindi.
4. E.Rustamov. Uzbekskaia poeziia v pervoy polovine 15 veka. – M.; 1963.
5. S.Erkinov. Lutfiy. Hayoti va ijodi. – T.: 1965.
6. X.Zarif. Lutfiy va Navoiy. Kitobda: Ulug' o'zbek shoiri. – T.: 1948.